

Махкамов Дурбек Нематович,

Ташкент давлат юридик университети
3-курс декани



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2019-9-2>

SUD KOMPYUTER-TEKNIKAVIY EKSPERTIZASI SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK

Аннотация: Mazkur maqolada sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizaning ahamiyati, bu turdagi ekspertiza sohasidagi xalqaro hamkorlikning bugungi kundagi holati va sohani rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza faoliyatini tartibga solishda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil etilib, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari atroflicha o'rganilgan.

Калит so'zlar: ekspertiza, xalqaro huquq, o'zarolik prinsipi, dalil, axborot-texnologiyalari, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza.

Махкамов Дурбек Нематович,

Декан 3-го курса
Ташкентского государственного
юридического университета

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ОБЛАСТИ СУДЕБНОЙ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация: В данной статье рассматривается важность судебной компьютерно-технической экспертизы, настоящее состояние и перспективы международного сотрудничества в этом области экспертизы. А также, проанализирован опыт зарубежных стран в области регулирования судебной компьютерно-технической экспертизы, а также изучено вопросы совершенствования законодательства в этой области.

Ключевые слова: экспертиза, международное право, принцип взаимности, доказательств, информационная-технология, судебной компьютерно-технической экспертиза.

Makhkamov Durbek Nematovich,

Dean of the 3rd year course at the
Tashkent State University of Law

INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF FORENSIC COMPUTER TECHNICAL EXPERTISE

Annotation: In this article studied the importance of forensic computer-technical expertise, the current and prospects of international cooperation in this area of expertise. Also analyzed the experience of foreign countries in the field of regulation of forensic computer-technical expertise and also studied the issues of improving legislation in this area.

Key words: expertise, international law, principle of reciprocity, evidence, information-technology, forensic computer-technical expertise.

Ma'lumki, sud-ekspertiza faoliyati jinoyatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish va ularni to'rtinchi vaqtida fosh etish, inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashda alohida rol o'ynaydi. Bu haqidagi qoidalar BMTning "Sud-ekspertiza sohasidagi xalqaro hamkorlik" rezolyusiyasida ham qayd etilgan.

So'nggi o'n yillikda ekspertiza faoliyatiga bo'lgan talab butun dunyo miqyosida sezilarli darajada ortdi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, oqibatda jinoyatni sodir etishning yangi va murakkab usul va vositalari odil sudlovni ta'minlashga hamda sud-ekspertiza borish zarurligini ko'rsatmoqda [1].

Shu jihatdan olib qaraganda, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar sud-ekspertiza faoliyatining doimiy takomillashtirilib borishi, yuqori malakali sud-ekspertlari tayyorlash va ushbu sohaga xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlarni joriy qilishdan manfaatdordir.

Darhaqiqat, sud-ekspertiza sohasidagi xalqaro hamkorlik doim muhim ahamiyatga ega bo'lib kelayotgan masalalardan biridir. Chunki ushbu sohada xalqaro aloqalarning yo'lga qo'yilishi, birinchi galda mahalliy odil sudlovni ta'minlashga hamda sud-ekspertiza faoliyatining rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi.

Bugungi globallashuv sharoitida, mobil aloqa va kompyuter axborot texnologiyalari jinoyat predmeti va vositasiga aylanib ulgurgan. Kompyuter texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish davomida to'plangan dalillar, maxsus bilimga ega bo'lgan ekspertlar tomonidan tekshirish va baho berishni talab etadi. Bu jarayon o'z navbatida sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza doirasida amalga oshiriladi.

A.L.Osipenko ta'kidlaganidek, axborot tarmoqlaridasodir etilgan jinoyatlarning o'ziga xosligi ularni isbotlash jarayonida va sifatida namoyon bo'lib, holat bo'yicha ko'rinib turgan ma'lumotlarni o'z vaqtida rasmiylashtirmaslik natijasida boshqa odatdagi isbotlash usullari va dalillardan foydalanishga majbur bo'lishga olib keladi [2].

Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza haqida so'z ketganda uning shaxsiy kompyuterlar fuqarolar tomonidan ishlatila boshlangandan ko'p o'tmay, 1980 yilda "dunyoga kelgan"ligini ta'kidlash joiz. 1984 yil AQSh FQBda Magnetik Media Program deb nomlangan maxsus dastur yaratildi. Keyinchalik, ushbu dastur asosida "Kompyuter tahlili va javob berish guruhi" deb nomlanuvchi xizmat tashkil etildi. AQSh Soliq boshqarmasi (Internal Revenue Service - IRS) jinoyat-qidiruv bo'limida 90-yillarning o'rtalariga qadar faoliyat yuritgan maxsus agenti amerikalik Maykl Anderson (Michael R.Anderson) sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizaning "otasi" sifatida baholanadi. Keyinchalik u sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasida yirik "Technologies Inc" kompaniyasiga asos soldi [3].

Boshqa sohalar kabi sud ekspertiza, jumladan, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasini ham faqatgina bir mamlakat doirasida rivojlantirib bo'lmaydi. Bunda turli davlatlarning sud ekspertizasi sohasi mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasidagi xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning quyidagi shakllari farqlanadi:

- xalqaro huquq normalari, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik bilan tartibga solinadigan xalqaro hamkorlik (masalan, vakolatli organlar tomonidan fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi shartnoma doirasida sud-ekspertiza faoliyatidagi hamkorlik);

- sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshirishda o'zarolik prinsipi asosidagi xalqaro hamkorlik (bunda chet el sud-ekspertiza muassasiga sud-ekspertizaning aniq bir turi bo'yicha o'zarolik prinsipi bo'yicha yordam berilganda, xorijiy sud-ekspertiza muassasi shunga o'xshash holatda mahalliy sud-ekspertiza idorasining so'roviga asosan tegishli sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshirib berish to'g'risidagi va'dasi bilan tasdiqlanadi);

- sud-ekspertiza faoliyatini texnik, ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash sohasidagi xalqaro hamkorlik (sud-ekspertiza muassasalarining xalqaro birlashmalarini tashkil etish, xalqaro konferensiya, simpozium va seminarlar o'tkazish, sud-ekspertlarning xalqaro sud-ekspertiza muassasalarida stajirovkalarini tashkil etish va h.k.).

Birgina sud-ekspertiza faoliyatini texnik, ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash sohasidagi xalqaro hamkorlik yo'nalishi haqida gapirganda, 1993 yilda kompyuter dalillari bo'yicha birinchi xalqaro konferensiya (First International Conference on Computer Evidence) bo'lib o'tganligini alohida ta'kidlash lozim. 1998 yilga kelib, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza masalalari Interpolning sud-ekspertiza ilmiga bag'ishlangan simpoziumida muhokama qilinib bo'lindi. 2000 yilda San-Diegoda AQSh FQBning birinchi mintaqaviy sud-kompyuter laboratoriyasi tashkil etildi. Qolaversa, Sud-kompyuter ekspertiza bo'yicha Jahon Forumi (Computer Forensics World) ham sud-kompyuter-texnikaviy ekspertlari uchun o'ziga xos muloqot maydoniga aylanib ulgurgan.

Shuningdek, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizaning zamonaviy metodik va texnik vositalari rivojiga o'nngi vaqtlarda tashkil etilgan kompyuter sud-ekspert tadqiqotlari sohasidagi quyidagi xalqaro birlashmalar ulkan hissa qo'shgan: Xalqaro kompyuter tadqiqotlari assotsiatsiyasi, Axborot va sud-ekspertizasi xavfsizligi jamiyati, Kompyuter bo'yicha xalqaro sud ekspertlari jamiyati, Xalqaro axborot sud-ekspertizasi assotsiatsiyasi, Yevropa sud-ekspertiza muassasalari tarmog'ining axborot sud-ekspertiza bo'yicha ishchi guruhi, shuningdek, Interpol va Yevropolning sud-kompyuter-texnikaviy bo'linmalari.

Xalqaro kompyuter tadqiqotlari assotsiatsiyasi (International Association of Computer Investigative Specialists - IACIS) - bu toifadagi sud-ekspertlarini xalqaro jihatdan birlashtirgan ilk tashkilot hisoblanadi. 1990 yilda tuzilgan ushbu tashkilotda tarkibiga bugungi kunda 49 ta davlat vakillari sud-kompyuter-texnikaviy ekspertlarni sertifikatlashtirish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar, kiberjinoatchilikka qarshi kurash va sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza faoliyatini metodik jihatdan ta'minlashda Jahon politsiya tashkiloti - Interpolning alohida o'rni bor. 2008 yili Interpol tarkibida ushbu masalalarga ixtisoslashgan tarkibiy tuzilma (Interpol computer forensic analysis unit) tashkil etildi. Ushbu tuzilmaga sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikni ta'minlash, tegishli sud-ekspertlarni tayyorlash ishlarini muvofiqlashtirish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

Shuningdek, Kompyuter (raqamli) dalillari xalqaro tashkiloti (International Organization on Computer Evidence - IOCE) ham ushbu sohada axborot texnologiyalariga oid dalillarni baholash borasida xalqaro hamkorlikni ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Mazkur xalqaro tashkilotlar turli mamlakatlarning sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasi mutaxassislari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, dunyodagi yetakchi sud ekspertiza muassasalari o'rtasida o'zaro tajriba almashish imkonini berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qolaversa ShHTga a'zo mamlakatlar adliya vazirliklarining sud ekspertizasi markazlari rahbarlari yig'ilishi kabi tuzilmada ham sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi quyidagi jihatlarini doim e'tibor markazida bo'lib keladi:

-
-
- o'zaro hamkorlikni rivojlantirish;
 - tajriba almashish, soha qonunchiligini takomillashtirish;
 - sifat jihatdan xalqaro standartlarga javob beradigan laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish;
 - ekspertlarni an'anaviy va yangi ekspertizalar sohasida laboratoriyalararo malakaviy test sinovlaridan o'tkazish;
 - sud ekspertizasi mazkur turi bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan almashish,
 - davlat sud ekspertiza muassasalari xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish,
 - ekspertlarning vakolat doirasini belgilash, malaka oshirish kurslari va seminarlarida ishtirok etishini ta'minlash.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash esa, sud-huquq tizimida uzviy bo'lagi bo'lgan sud ekspertizasi, xususan, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza faoliyatini takomillashtirish, ekspertizalarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasida xalqaro loyihalarni amalga oshirish ham xalqaro hamkorlikni ta'minlashning muhim tarkibiy elementlaridan biridir. Ushbu faoliyat turli dinamik omillar ta'siri ostida rivojlanib, davlat va nodavlat sud-ekspertiza muassasalari o'rtasida xalqaro aloqalarni rivojlantirishga, ilmiy asoslangan faoliyatni tashkil etishga ko'maklashadi.

Ushbu turdagi ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun birinchi galda sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizani amalga oshiruvchi muassasalar va sud-ekspertlarining xalqaro birlashmalari hamda xorijiy sud-ekspertiza muassasalari bilan o'zaro hamkorligining samarali modelini yaratish lozim.

Sud-huquq tizimini isloh qilish, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini yanada oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatimizda ham jahon andozalariga mos sud ekspertizasi o'tkazish va takomillashtirishning normativ-huquqiy asoslari yaratilib, hayotga izchil tatbiq etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-sonli Qarori sud-ekspertlik faoliyatini jadal rivojlantirishda muhim huquqiy mexanizmlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Mazkur Qaror bilan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini tashkil etish belgilanib, ularga sud ekspertizalarining ayrim turlarini (44 ta) o'tkazish huquqi berildi. Xususan, endilikda sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza ham, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori loyihasi ham ishlab chiqilgan bo'lib, hozirda mazkur loyiha jamoatchilik o'rtasida qizg'in muhokama qilinmoqda. Ushbu hujjat bilan "Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanishi kutilmoqda. Mazkur Nizomda nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti respublikaning barcha hududlaridan, shuningdek, xorijiy mamlakatlardan olingan buyurtmalar asosida sud ekspertizasi amalga oshirish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan. Bu o'z navbatida nodavlat sud-ekspertiza muassasalarining xalqaro sud-ekspertiza jarayoniga integratsiyalashuvini ta'minaydi. Shu maqsadda xalqaro hamkorlikning boshqa turlarini ham mazkur Nizomda belgilash maqsadga muvofiq.

Yana bir muhim tomoni shundaki, mazkur qaror bilan 2019-2020 yillarda "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha Yo'l xaritasi" ham tasdiqlangan

bo'lib, unda sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi belgilangan. Chunonchi, Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasiga (IAFS) a'zo bo'lish masalasini ishlab chiqish, yetakchi sud-ekspertiza, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan memorandumlar, o'zaro hamkorlik bitimlari tuzish, qo'shma dasturlarni amalga oshirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, mamlakatimizda sud-ekspertiza faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy qilish, xususan, laboratoriyalarni xalqaro ISO/IEC 17025 talablari asosida akkreditatsiyadan o'tkazish orqali bu boradagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi orqali mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi sud-ekspertiza doiralarda pozitsiyasini mustahkamlashga erishiladi. Bu esa o'z navbatida, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza institutlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, xalqaro sud-ekspertiza sohasida umumiy axborot makonini yaratish, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasidagi xalqaro standartlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, sud-kompyuter-texnikaviy ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikning ta'minlanishi huquqni muhofaza qilish faoliyatini yuqori darajada ilmiy-texnik va innovatsion jihatdan qo'llab-quvvatlashga, bu turdagi ekspertlar faoliyatining samaradorligi oshishiga va ekspertiza sifatining yangi bosqichga ko'tarilishiga, xalqaro miqyosida ushbu sohada to'plangan amaliy tajriba va ilmiy natijalarning o'zaro almashinuviga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Хавлла Х.М., Хасан Х.А. Международное сотрудничество в рамках развития института судебной экспертизы (Khavla Kh.M., Khasan Kh.A. International cooperation in the development of the institute of forensics). <http://www.cyberleninka.ru>

2. Осипенко А.Л. Борьба с преступностью в глобальных компьютерных сетях: (Международный опыт): Монография. - М., 2004. - С. 326 (Osipenko A.L. Fighting crime in global computer networks: (International experience): Monograph. - M., 2004. - P. 326).

3. Хазиев Ш.Н. Международное сотрудничество в области судебной компьютерно-технической экспертизы (Khaziev S.N. International cooperation in the field of forensic computer technical expertise). <http://www.cyberleninka.ru>